

## **THE IMPORTANCE OF TEACHING SCHOOLCHILDREN THE BIOECOLOGY AND USEFUL PROPERTIES OF BIRDS**

**Joldasbaeva E.Q.**

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

3rd year student of biology

**Abstract:** *This article provides information on the biology, ecology and useful properties of birds. Based on this information, the school uses technologies to teach students.*

**Key words:** *Class of birds, bioecology, beneficial properties, landscapes, population, biocenosis, forest birds, desert and oasis birds.*

**Annotaciya:** *Ushbu maqolada Qushlar sinfi biologiyasi, ekologiyasi va ularning foydali xususiyatlari bo'yicha malumotlar keltirilgan. Shu malumotlardan kelib chiqib maktab o'quvchilarga ularni o'rgatishda texnologiyalardan foydalanish usullari.*

**Kalit so'zlar:** *Qushlar sinfi, bioekologiyasi, foydali xususiyatlari, landshaftlar, populatsiya, biotsenoz, o'rmon qushlari, cho'l va voha qushlari.*

**Kirish:** Hozirgi vaqtda odamlarning xo'jalik faoliyati erdagi barcha landshaftlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli keyingi yillari madaniy landshaftlardagi qushlar faunasini va ekologiyasini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi kengayib borayotgan madaniy landshaftlar hozircha odamlar faoliyatining ta'siriga uchramagan tabiiy landshaftlarni tez siqib chiqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan bizni o'ragan atrof muhitga e'tiborli munosabatda bo'lish, ayniqsa yovvoyi umurtqali hayvonlar populyatsiyasiga qatti harakatlarimizning nimalarga olib kelishi mumkinligini ko'ra olishimiz va to'g'ri

rejalashtirib bilishimiz kerak. Demak ilmiy-texnik progress asrida odamlarning katta hajmda olib borilayotgan xo'jalik ishlari ko'pincha tabiiy shakllangan biotsenozlar va uning komponentlarining bo'zilishiga olib kelmoqda.

Bunday o'zgarishlar qushlarning ekologiyasiga, hulq-atvoriga, uya statsiyalarini tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va ayrim qushlarni yashash muhitidan siqib chiqarmoqda. Bu o'zgarishlarning antropogen landshaft biotsenozida katta o'rin tutgan qushlarga ta'sirini o'rganish nazariy va amaliy tarafdin katta ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda qushlar sinfiga 40 ta turkumga mansub bo'lgan 8500 dan ortiq turi kiradi. MDHda esa 24 ta turkumga kiruvchi 800 ga yaqin qush turlari uchraydi. O'zbekiston faunasidagi umurtqali hayvonlar orasida turlarga boy, eng xilma-xil guruhi. Respublikamiz hududida ularning 432 turi uchraydi. Ularning barchasi to'shtojlilar kenja sinfiga mansub bo'lib, 18 turkumni tashkil etadi.

Qushlarning ekologik guruhlari. Faol uchish, issiqqonlik, markaziy nerv sistemasining yuqori darajada rivojlanganligi qushlarning er yuzida keng tarqalishiga imkon bergan. Har xil sharoitga yashashga moslanishi qushlarning tuzilishi va hayot kechirishiga ta'sir ko'rsatgan. Hayot kechiradigan joyning xususiyatlariga binoan o'rmon qushlari, cho'l-voha qushlari, botqoq va suv bo'yi qushlari, suv qushlari, suv-havo va havo-er qushlari guruhlariga ajratiladi.

O'rmon qushlari hayoti daraxt va butalar o'sadigan chakalakzorlar bilan bog'liq. Bu guruhga qizilishtonlar, to'tilar, targ'oqlar, kakkular, chittaklar, kaptarlar, karkurlar va boshqalar kiradi. Ular oziqni daraxtlar yoki ular kovagiga uya quradi. Daraxtlarda harakatlanadigan qizilishtonlar, to'tilar va targ'oqlarning oyoq barmoqlari kuchli rivojlangan, tirmoqlari o'tkir, uchi qayrilgan. Qizilishtonlar oyoqlaridagi barmoqlarining uchi o'tkir, ichkariga qayrilgan bo'ladi. Qizilishton daraxt tanasida yurganida qattiq va tarang tortilgan dumiga tayanadi. To'tilar esa yurganida tumshug'idan ham foydalanadi.

Cho'l va voha qushlari. O'tloq, dasht va cho'l kabi ochiq joylarda hayot kechiradi (tuyaqush, tuvaloq, oqbovor, qorabovur, turg'ay). Ular uyasini tuproq

yuzasiga quradi; tez yugurib yoki yurib, er yuzasidan oziq qidiradi. Gavdasi yirik yoki o`rtacha kattalikda, bo`yni va oyoqlari uzun, baquvvat; barmoqlari kalta va yo`g`on. Barmoqlari soni uchtagacha (tuyaqushlarda ikkitagacha) kamaygan. Ochiq joyda yashovchi qushlar patlari rangi uzoqdan ko`zga tashlanmaydigan kulrang tusda bo`ladi.

Botqoq va suv bo`yi qushlari botqoqlashgan suv havzalarining sayoz qismida va suv bo`yida yashaydi (laylaklar, turnalar, baliqchilar). erdan oziq topadi; erga yoki daraxtlarga uya quradi. Yirik yoki o`rtacha kattalikdagi qushlar; ko`pchiligining oyoqlari ingichka, barmoqlari uzun bo`lib, sayoz suvda yoki balchiqda yurushga moslashgan. Boshi kichik, tumshug`i uzun; qanotlari yaxshi rivojlangan, dumi kalta. Patlari g`ovak, parlari kam rivojlangan; suvda suzolmaydi.

Suv qushlari hayotining ko`r qismini suvda o`tkazadi (gagaralar, kayralar, pingvinlar, chistiklar, qoravoilar, o`rdaklar, g`ozlar, oqqushlar); yaxshi suzadi; ko`pchiligi sho`ng`iydi. Lekin quruqlikda beso`naqay yuradi; og`ir uchadi; ayrimlari (pingvinlar) ucholmaydi. Oyoqlari tanasi keyingi qismida joylashganligi sababli tanasi erda yurganida deyarli tik joylashadi. Pat qoplami tig`iz, parlari yaxshi rivojlangan; barmoqlari orasida suzgichpardasi bor. Ko`pchilik suv qushlari suv hayvonlari (baliqlar, molluskalar, qisqichbaqasimonlar), boshqa o`simliklarning vegetativ organlari va urug`laribilan oziqlanadi.

Nukus shahri XTMFMT va TEB ga qarashli №38-sonli umumta`lim maktabining 7 d-sinfiga “Zoologiya” fanidan “Qushlar sinfi” mavzusini o`qitish tashkil etildi.

Yangi pedagogik texnologiyalardan biri bo`lgan Keys-stadi o`quv topshirig`iga asoslangan 1 juftlikka mo`ljallangan o`rtacha darajali keys-stadi bo`yicha mashg`ulotlar tashkil etildi.

Keys-stadi (inglizcha sase – vaziyat, holat, study – o`rganish). Keys-stadida bayon qilingan va ta`lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo`naltiradigan aniq real yoki sun`iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o`qitish usulidir.

Keys-stadi texnologiyasi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va Keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

### 1-jadval

**“Qushlarning xilma-xilligi: voha va cho'l qushlari” o'quv modulidan test topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov mashg'ulotini natijalari**

Guruhlar	Keys-stadi asosida			
	Baholash			
	“5”	“4”	“3”	“2”
Biologiya-7 d - sinf (o'quvchilar soni-24 ta)	4	5	13	2
Samaradorlik (foizda)	37,5		54,1	8,4

### XULOSA

Zoologiya darsida umurtqali hayvonlar vakillarini o'qitish orqali ta'lim – ta'rbiya berish natijasida umumiy o'rta talim berish muossasalarida o'quvchilarni o'qitish orqali o'zini qamrab olgan ona tabiatining qadir-qimmatini tushinishga, undan tejamli foydalanishni tug'ri uyumlashtirishga, biologik xilma-xillikni saqlash muammosini qonun orqali echishga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asenov G.A., Tleuov R.T hám t.b. «Qaraqalpaqstanda zoologiya iliminiń rawajlanıwı» Nókis 2009 j.
2. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. «Qaraqalpaqstannıń haywanat dúnyası» Nókis «Bilim» 2014 j.
3. Tleuov R. hám t.b. «Omirtqalılar zoologiyası» Nókis 2005j.
4. Аметов М.Б. Ландшафтные комплексы птиц Каракалпакстана и их биоценоотическое распределение // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2002. - №. 1-2. - С. 24-28.



5. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: Каракалпакстан, 1981. – 138 с.

6. [www.iucnredlist.org](http://www.iucnredlist.org)

7. Негмаджанов Б. Б., Насимова Н. Р., Ганиев Ф. И. Хирургическое лечение пролапса гениталий женщин репродуктивного возраста //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 10 (51). – С. 31-36.

8. Ганиев Ф. И. и др. Гинекологическое Здоровье и качество жизни женщин после хирургической коррекции пролапса гениталий //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 10 (51). – С. 83-87.

9. Насимова Н. Р. Добровольная хирургическая контрацепция женщин репродуктивного возраста, страдающих пролапсом тазовых органов //Наука и мир. – 2015. – №. 1-2. – С. 95-97.

10. Негмаджанов Б. Б., Насимова Н. Р., Жалолова И. А. РОЛЬ ЭСТРОГЕННОГО ДЕФИЦИТА В РАЗВИТИИ И ПРОГРЕССИРОВАНИИ ПРОЛАПСА ГЕНИТАЛИЙ //ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2023. – Т. 4. – №. 3.

11. Мамирова Г. и др. ОСОБЕННОСТИ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ ПОСЛЕ КОЛЬПОПОЭЗА //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 49-55.

12. Насимова Н. Р. и др. СЕКСУАЛЬНАЯ ФУНКЦИЯ У ЖЕНЩИН В ПЕРИОД ОПЕРАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ ТАЗОВОГО ПРОЛАПСА //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 744-752.

13. Nasimova N. R., Shamsieva M. S. Comprehensive treatment and rehabilitation of pelvic floor insolvency in women with various forms of prolapse //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 12. – С. 1006-1009.

14. Nigina N. Evaluation of women's life quality with genital prolapse before and after surgery //European science review. – 2016. – №. 5-6. – С. 96-98.

15. Rustamovna N. N. Optimization of surgical correction of genital prolapse with subsequent tubal sterilization //European science review. – 2015. – №. 7-8. – С. 89-90.

16. Raimova M. M., Mamatova S. A., Yedgarova U. G. The clinical polymorphism of extrapyramidal disorders after acute cerebrovascular accident //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 257-263.

17. Nabieva N. V., Mamatova M. M. Reforms in The Republic of Uzbekistan on protected areas //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 28. – №. 1. – С. 4-5.

18. Mamatova M. N. STUDY OF THE BIOLOGICAL PROPERTIES OF RABIES BY THE METHOD OF DIAGNOSIS OF THE" GOLD STANDARD" //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-144.